

Date: 7th March-2026

PERIKARDITLARDA UTT VA MRTNING DIAGNOSTIK AHAMIYATI

Nishanova Yulduz Khatamovna, To'laganov Samadbek Botirjon o'g'li
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Uzbekistan, Toshkent

Annotatsiya: Perikardit — yurakni o'rab turuvchi perikard qavatiining yallig'lanish kasalligi bo'lib, u o'tkir, o'tkirosti, surunkali va konstruktiv shakllarda kechadi. [1] Diagnostikada ultratovush tekshiruvi va magnit rezonans tomografiya usulari muhim ahamiyatga ega. UTT perikardial suyuqlik va yurak qopqog'i harakatini tez va xavfsiz aniqlash imkonini beradi, shu bilan birga yurak funksiyasini baholay oladi. MRT esa perikard qalinligi, yallig'lanish darajasi, perikard va miokard o'rtasidagi farqlash, shuningdek, suyuqlik tarkibini va perikard elastikligini baholashda eng sezgir vositadir. [2] O'tkir perikarditda yallig'lanish va suyuqlikni aniqlash uchun UTT birinchi tanlov bo'lsa, surunkali yoki konstruktiv perikarditda MRT diagnostik aniqlikni oshiradi. [3]

Kalit so'zlar: Perikardit, UTT, MRT

Ishning maqsadi: Perikardit tashxisida ultratovush tekshiruvi va magnit rezonans tomografiya ning diagnostik ahamiyatini baholash aniqlash.

Material va Merodlar: Tadqiqotda perikardit tashxisi qo'yilgan 60 bemor o'rganildi, ularning yoshi 18–65 yosh orasida bo'lib, o'rtacha yosh 42-tashkil qiladi. Ulardan 10 tasi (16.6 %) o'tkir, 15 tasi (25 %) o'tkirosti va 35 tasi (58.3 %) surunkali perikardit mavjud edi. Bemorlarning klinik holati, EKG va laboratoriya ma'lumotlari tahlil qilindi. Ultratovush tekshiruvi barcha bemorlarda perikardial suyuqlik hajmi, perikard harakati, yurak qopqog'i funksiyasi va hemodinamika baholandi. Magnit rezonans tomografiya perikard qalinligi, yallig'lanish darajasi, perikard va miokardni farqlash, suyuqlik tarkibi va konstruktiv o'zgarishlarni aniqlash uchun kontrastli va kontrastsiz tasvirlar olindi. Natijalar bemorlar orasida UTT va MRT ko'rsatkichlari bilan taqqoslandi va metodlarning diagnostik ahamiyati tahlil qilindi.

Tadqiqod natijasi: UTT yordamida perikardial suyuqlik 57 bemorda aniqlangan, bu bemorlarning 95% ini tashkil etdi. Shu bilan birga, perikard qalinligini aniqlash imkoniyati nisbatan past bo'lib, faqat 24 bemorda (40%) perikard qalinligi >4 mm ekanligi aniqlangan. Surunkali va konstruktiv perikarditni UTT orqali faqat 31 bemorda (51.67%) aniqlash mumkin bo'ldi. Miokard va perikardni farqlash ham UTT yordamida amalga oshmadi, shuningdek suyuqlik tarkibini aniqlash imkoniyati mavjud emas edi. MRT yordamida esa barcha bemorlarda perikard qalinligi, yallig'lanish darajasi va suyuqlik tarkibi aniq baholandi (95%). Surunkali va konstruktiv perikarditda MRT diagnostik aniqligi yuqori bo'lib 58 bemorda (96.6%) perikard qalinligi va yallig'lanish aniqlandi. Shu bilan birga, miokard va perikardni farqlash ham 96% sezgirlik bilan amalga oshirildi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, UTT/Echo perikardial suyuqlik va yurak funksiyasini tez va xavfsiz aniqlashda samarali bo'lsa, MRT surunkali va konstruktiv perikarditni, perikard qalinligi, yallig'lanish va miokard-perikard farqlashni aniqlashda eng sezgir metod hisoblanadi.

Date: 7th March-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adler Y, Charron P, Imazio M, et al. 2015 ESC Guidelines for the diagnosis and management of pericardial diseases. European Heart Journal. 2015;36(42):2921–2964.
2. American Heart Association Scientific Statement on Imaging in Pericardial Disease. Circulation. 2019.(Perikarditda UTT va MRTning o‘rni)Spodick DH.
3. Braunwald's Heart Disease. 12th ed. Philadelphia: Elsevier; 2022.(Perikard kasalliklari va ularning zamonaviy diagnostikasi)
4. European Society of Cardiology. 2015 ESC Guidelines for the diagnosis and management of pericardial diseases. European Heart Journal. 2015.(Perikardit diagnostikasi va davolash bo‘yicha xalqaro qo‘llanma)

